



## TOSHKENT SHAHAR YANGIHAYOT TUMAN HOKIMI QARORI

2023 - yil 21 - iyun

183-14-220-Q/23

Yangihayot tuman hokimligi

### **Toshkent shahar hokimining 2023-yil 16-iyundagi 375-14-0-Q/23-sonli qarori ijrosi to'g'risida**

O'zbekiston Respublikasi "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi Qonunining 10-moddasiga, Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdagi 543-sonli qarori bilan tasdiqlangan "Yer uchastkalarini davlat va jamoat ehtiyojlari uchun doimiy foydalanishga ajratishning ma'muriy reglamenti"ga muvofiq, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 19-maydagi PQ-2979-sonli qarori va 2018-yil 24-maydagi PF-5447-sonli Farmoni hamda Toshkent shahar hokimining 2023-yil 16-iyundagi 375-14-0-Q/23-sonli qarorlari ijrosini ta'minlash maqsadida,

#### **QAROR QILAMAN:**

1. Toshkent shahar hokimining "O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga yer maydoni ajratib berish haqida" 2023-yil 16-iyundagi 375-14-0-Q/23-son qarori ma'lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Toshkent shahar hokimining mazkur qaroriga muvofiq:

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga Toshkent shahar, Sergeli va Yangihayot tumanlari, Xonobod va Qipchoq ko'chalari bo'ylab Qo'yliq-Qipchoq-Yangihayot yo'nalishlaridagi yer usti halqa metro liniyalarining qurilishi uchun aholi punktlari yerlaridan maydoni 9,30 gektarli yer uchastkasi (chegara rejasiga muvofiq) doimiy foydalanishga ajratib berilganligi;

"O'zbekiston temir yo'llari" aksiyadorlik jamiyatiga - arxitektura-rejalashtirish topshiriqlarini tuzib chiqish hamda ajratilgan yer maydonini davlat ro'yxatidan o'tkazish uchun o'rnatilgan tartibda Davlat xizmatlari markazi orqali buyurtma berilishi;

loyihalash uchun yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xarita va geologik xulosa ishlab chiqish uchun "Qurilishda

muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastriloyiha ilmiy-tekshirish davlat instituti” davlat unitar korxonasi Tashkent shahar filialiga buyurtma berilishi;

loyiha-smeta hujjatlarini tayyorlash uchun loyihalash tashkiloti bilan o‘rnatilgan tartibda shartnoma tuzilishi hamda loyiha-smeta hujjatlarini mutasaddi tashkilotlarga taqdim etilishi;

mazkur hududda joylashgan muhandislik tarmoqlarini ko‘chirish yoki muhofaza hududini saqlab qolish ishlari, o‘z mablag‘lari hisobidan amalga oshirilishi;

qurilish ishlari tugaganidan so‘ng, yer osti muhandislik inshootlarining ijro surati tushirilgan 1:500 nisbatdagi topografik xaritasi “Qurilishda muhandislik qidiruvlari, geoaxborot va shaharsozlik kadastriloyiha ilmiy-tekshirish davlat instituti” davlat unitar korxonasi Tashkent shahar filialiga topshirilishi;

O‘zbekiston Respublikasi Yer kodeksining 36-moddasida ko‘rsatib o‘tilgan holatlar yuzaga kelganda, ushbu qaror belgilangan tartibda bekor qilinishi haqida ogohlantirilishi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish tuman hokimining o‘rinbosari D.Xalisov zimmasiga yuklatilsin.

**Yangiheyot tumani hokimi**



**X.Inogamov**